

OʻZBEKISTON — IORDANIYA MUNOSABATLARIDA YANGI DAVR BOSHLANMOQDA

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn 25-avgust kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.



Oʻzbekiston Respublikasi bilan Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi oʻrtasida diplomatik munosabatlar 1993-yilning fevral oyida oʻrnatilgan. 1994-yilning iyun oyida Toshkentda Iordaniya elchixonasi oʻz faoliyatini boshlagan. Hozirda qarorgohi Ar-Riyodda boʻlgan Oʻzbekiston elchisi bir vaqtning oʻzida Ammondda akkreditatsiyadan oʻtgan. Soʻnggi yillarda ikki tomonlama aloqalar yangi surʼatga ega boʻldi. Tomonlar oʻzaro manfaatli muhim salohiyatga tayangan holda hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish istagini namoyon etmoqda. Joriy yilda diplomatik pasport egalari uchun viza rejimini bekor qilish toʻgʻrisidagi bitim, shuningdek, Tashqi ishlar vazirliklari oʻrtasida 2025 — 2027-yillarga moʻljallangan qoʻshma hamkorlik

dasturi imzolangani eʼtiborli. Bu qadamlar oʻzaro munosabatlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Oʻzbekistonning Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar kabi koʻp tomonlama formatlardagi ishtiroki Oʻzbekiston — Iordaniya munosabatlarini chuqurlashtirish uchun qoʻshimcha platforma yaratmoqda. Oʻzbekiston va Iordaniya oʻrtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2024-yilda qariyb 4,6 million AQSH dollarini tashkil etdi. Joriy yilning birinchi yarmida esa bu koʻrsatkich 4,3 million dollar boʻlgani savdo-iqtisodiy aloqalar kengayib borayotganini koʻrsatadi. Mamlakatimiz Iordaniyaga mis, quritilgan meva, yongʻoq va toʻqimachilik mahsulotlarini eksport qilmoqda. Iordaniyadan amalga oshirilayotgan

import tarkibida esa farmatsevtika, kimyo mahsulotlari, asbob-uskuna va mashinalar salmoqli boʻlmoqda. Ikki mamlakat investitsiya, sanoat va savdo vazirlari oʻrtasidagi 2025-yildagi muzokaralar hamkorlikni kengaytirishga tayyor ekanliklarini tasdiqladi. Tovarlarning mamlakatlarimiz bozorlariga chiqishini soddalashtiradigan imtiyozli savdo bitimini imzolash, togʻ-kon sanoati, jumladan, fosfatlar, mis va boshqa foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash sohasida hamkorlikni rivojlantirish, qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat sanoatidagi aloqalarni mustahkamlash, farmatsevtika, toʻqimachilik, yengil sanoat va raqamli iqtisodiyot jabhalarida qoʻshma loyihalarni amalga oshirish muhim yoʻnalishlar qatoriga kiradi.

Iordaniya Podshohining Oʻzbekistonga oliy darajadagi tashrifi davlatlarimiz oʻrtasidagi ikki va koʻp tomonlama hamkorlik aloqalarini yangi bosqichda davom ettirish uchun imkoniyat yaratishi kutilmoqda. Bu oʻzaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish va gumanitar aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli boʻlishi, shubhasiz. Samarqand shahri aeroportida Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kutib oldi. Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari koʻtarildi, faxriy qorovul saf tortdi. Milliy kuy-qoʻshiq va raqslardan iborat tantanali marosim boʻlib oʻtdi. Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan hamrohligida qadimiy Samarqand shahrining ulugʻvor tarixiy obidalari bilan tanishdi. Davlat rahbarlari avval Shohi Zinda majmuasiga tashrif buyurdilar. Mazkur ziyoratgoh Paygʻambarimiz Muhammad alayhissalomning sahobalaridan biri Qusam ibn Abbos va boshqa arboblarning maqbaralaridan tashkil topgan. Majmuaning tarixiy, madaniy va badiiy ahamiyati shundaki, u meʼmorchilik va bezak sanʼatining bir necha asr davomidagi taraqqiyotini aks ettiradi. Shohi Zinda 2001-yilda YUNESKOning Butunjahon merosi roʻyxatiga kiritilgan. Rasman Paygʻambarimiz Muhammad alayhissalomning qizi Fotima va kuyovi Ali ibn Abu Tolibning avlodlari hisoblangan Hoshimiylar sulolasi vakili boʻlgan Iordaniya Podshohi Qusam ibn Abbos xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Qurʼon tilovat qilindi. Amir Temur maqbarasi ziyorati chogʻida Iordaniya delegatsiyasiga buyuk bobomizning davlatchilik siyosati, harbiy mahorati, turli mamlakatlar bilan diplomatik aloqalari

haqida soʻzlab berildi. Sahibqironning hayoti va faoliyati, u tuzgan davlat oʻz davrining eng ulkan mamlakati boʻlgani mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Davlat rahbarlari Mirzo Ulugʻbek, Sherdor va Tillakori madrasalaridan iborat Registon majmuasida ham boʻldilar. Bu obidalar asrlar davomida ilm-fan markazi boʻlgan, yuzlab olim va tadqiqotchilarni kamolga yetkazgan. Oʻzining mukammal joylashuvi va uygʻunligi tufayli Registon haqli ravishda Samarqandning “tashrif qogʻozi” hisoblanadi. Tanishuv chogʻida oliy martabali mehmonga ushbu inshootlarning bunyod etilish tarixi va naqshlarining oʻziga xos jihatlari, maydonda olib borilgan restavratsiya ishlari haqida maʼlumot berildi. Shundan soʻng Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan birgalikda Samarqand xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” tarixiy-etnografik majmuasini borib koʻrdi. Oliy martabali mehmon xalqimizning boy madaniy merosi, hunarmandchilik va amaliy sanʼatini aks ettiruvchi koʻrgazmalarni tomosha qildi. Raqs jamoalarining chiqishlari namoyish etildi. Bu yerda xalqimizning buyuk oʻtmishi ramzlari toʻplangan, tarixiy shaharlarimizdagi diqqatga sazovor joylarning nusxalari barpo etilgan. Milliy anʼanalimiz bilan birga doʻst xalqlar bilan aloqalar tarixi ham aks ettirilgan. Bunday maʼno-mazmun, tarix va bugungi kun uygʻunligi mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Oʻzbekiston — Iordaniya sammitining asosiy tadbirlari, shu jumladan, oliy darajadagi muzokaralar 26-avgust kuni boʻlib oʻtadi.

Ziyodilla JONIBEKOV,
Gʻolib HASANOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
OʻZA maxsus muxbirlari.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

OʻZA.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING OʻTTIZ TOʻRT YILLIGI MUNOSABATI BILAN DAVLAT XIZMATCHILARI HAMDA ISHLAB CHIQARISH VA IJTIMOIIY-IQTISODIIY SOHALAR XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TOʻGʻRISIDA

Mamlakatimizda keng koʻlamli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yurtimizning iqtisodiy taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini taʼminlash, Yangi Oʻzbekistonning xalqaro miqyosdagi obroʻ-eʼtibori va nufuzini yuksaltirishga qoʻshgan munosib hissasi, ilgʻor innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, hududlar infratuzilmasini jadal rivojlantirish borasidagi ulkan xizmatlari, jamiyatimizda ijtimoiy-maʼnaviy barqarorlikni xizmatlari, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yoʻlidagi ibratli faoliyati hamda jamoat ishlaridagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan qishloq xoʻjaligi xodimi” faxriy unvoni bilan
Xalilov Nasriddin — Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining oʻsimlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish kafedrasini mudiri, Samarqand viloyati

“Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan sanoat xodimi” faxriy unvoni bilan
Kudratov Uktam Aralovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Qizilqum kon boshqarmasi “Pistali” koni bosh muhandisining oʻrinbosari

“Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan geolog” faxriy unvoni bilan
Urazmetov Shermuxammad Djumabayevich — “Oʻzbekgeofizika” aksiyadorlik jamiyatining “Ustyurt geofizika ekspeditsiyasi” filiali geologiya-geofizika ishlarini istiqbolli prognozlash boʻlimi boshligʻi
Hamroyev Umarjon Artiqovich — “Navoiyuran” davlat korxonasining “Uran va nazy metallar geologiyasi” ilmiy-ishlab chiqarish markazi geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi bosh geologi

“Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan quruvchi” faxriy unvoni bilan
Tursunov Jamshid Yunusovich — Oʻzbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi raisi
Xidoyatov Sherzod Saidjanovich — Oʻzbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vaziri

“Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan tadbirkor” faxriy unvoni bilan
Vaxabov Davron Abdullalovich — Oʻzbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi
Saidmuradov Uktam — Samarqand tumanidagi “Stekloplastik” masʼuliyati cheklangan jamiyati raisi, Samarqand viloyati

(Davomi 2-betda).



MUHOKAMA MARKAZIDA — MEHNAT MUHOJIRLARI MANFAATLARI

Kecha Oʻzbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha boʻlgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish boʻyicha Parlament komissiyasining navbatdagi majlisi boʻlib oʻtdi.

Yigʻilish

Majlis Parlament komissiyasining hamraisarlari, Oliy Majlis Senatni Raisi Tanzila Norboyeva hamda Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov boshchiligidagi oʻtkazildi. Unda Barqaror rivojlanishning 10-milliy maqsadi 7-vazifasi doirasida tartibga solingan, xavfsiz, boshqariladigan mehnat migratsiyasi va samarali migratsiya siyosatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi. Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda ushbu yoʻnalishda qator islohotlar hayotga tatbiq etilib, mehnat muhojirlari uchun huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy kafolatlarni kengaytirildi.

Jumladan, mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga soluvchi 20 dan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilindi, moliya manbalari hisobiga muhojirlarning yoʻl chiptalari, “ishchi vizasi” hamda xorijiy til imtihonlari xarajatlarini qoplash mexanizmlari joriy etildi. Mehnat migratsiyasi geografiyasi kengaytirilib, fuqarolarni yuqori daromadli davlatlarga ishga yuborish, ularni kasb-hunar va chet tillarga oʻqitish tizimi yoʻlga qoʻyildi. Shuningdek, tashkil etilgan tartibda xorijga yuborilayotgan mehnat muhojirlari soni 5 barobar ortib, bunday davlatlar soni 3 tadan 16 taga yetdi. Mehnat huquqlari buzilgan va oʻz ish haqini ololmayotgan fuqarolarimizning

pullari ish beruvchilardan undirib berilmoqda. Xususan, soʻnggi toʻrt yilda xorijiy ish beruvchilardan 13630 nafar fuqaroning 5 mln. 950 ming dollardan ziyod miqdorida ish haqi, kompensatsiya va sugʻurta pullari ular foydasiga undirilgan. Shu bilan birga, majlisda mavjud tizimli muammolar ham qayd etildi. Jumladan, migratsiya sohasidagi qonunchilikni yagona hujjat doirasida takomillashtirish, sohaga oid xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish, noqonuniy migratsiya oqibatlariini kamaytirish, muhojirlarning huquq va manfaatlarini yanada ishonchli himoyalash zarurligi taʼkidlandi. Majlis yakunida tegishli qaror va “Yoʻl xaritasi” qabul qilinib, uning ijrosini samarali tashkil etish boʻyicha mutasaddi vazirlik hamda idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

“Xalq soʻzi”.

YAPONIYA — OʻZBEKISTONNING ISHONCHLI HAMKORI VA DOʻSTI

Shu yilning 26-27-avgust kunlari Oʻzbekiston Respublikasiga rasmiy tashrifim boʻlib oʻtadi. Bu mening Yaponiya tashqi ishlar vaziri sifatida yurtingizga soʻnggi uch yildagi ilk tashrifim va bir necha yillik orzuim amalga oshayotganidan chin dildan xursandman.

Biz va jahon

Markaziy Osiyo, xususan, Oʻzbekiston va Yaponiya oʻrtasidagi ayirboshlash tarixi

ming yildan koʻp davrga borib taqaladi. Buyuk Ipak yoʻli orqali mamlakatimizga

turli madaniyat hamda texnologiyalar kirib keldi va Yaponiya tarixi hamda jamiyatiga katta taʼsir koʻrsatdi. Oʻzbekiston va Yaponiyani bir necha ming kilometr quruqlik hamda dengiz ajratib turganiga qaramay, oʻtgan yillar davomida xalqlarimiz madaniy va etnik yaqinlik tuygʻusini saqlab,

mustahkamlab kelmoqda. Ikkinchi jahon urushi tugagandan soʻng koʻp sonli yaponiyaliklari sobiq sovet ittifoqi tomonidan internirlangan edi. Shunga qaramay, Oʻzbekistondagi yaponiyalik ishchilar va mahalliy aholi oʻrtasida iliq munosabatlar shakllandi.

YAPONIYA – O‘ZBEKISTONNING ISHONCHLI HAMKORI VA DO‘STI



Yaponlar koʻmagida barpo etilgan Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston davlat akademik katta teatrlining mahobatli binosi ikki mamlakat oʻrtasidagi doʻstlik timsoliga aylandi. Eshitishimcha, 1966-yilda Toshkentdagi zilzila paytida ushbu bino zarar koʻrmay qolgan va hozirda shahar aholisining madaniy maskanlaridan boʻlib xizmat qilmoqda.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, 1992-yilda mamlakatlarimiz oʻrtasida diplomatik munosabatlar oʻrnatildi. Yaponiya oʻttiz yildan ortiq vaqt davomida Oʻzbekiston taraqqiyotini izchil qoʻllab-quvvatlab, doimo uning ishonchli hamkori hamda doʻsti boʻlib kelayotir.

Koʻp yillik tarix va doʻstlikka asoslangan ikki tomonlama munosabatlarimiz izchil rivojlanib bormoqda. Yaponiya Oʻzbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi islohotlarni ilgari surish yoʻlidagi saʼy-harakatlarini har tomonlama qoʻllab-quvvatlab, uning rivojlanishiga, jumladan, infratuzilmani yaxshilash, kadrlar tayyorlash kabi sohalarida har tomonlama koʻmak bermoqda.

Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylari tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy kreditlar ajratish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatamlariga koʻmaklashish soʻnggi yillardagi hamkorlikka misol boʻla oladi. Shuningdek, biz issiqlik elektr stansiyalarini, xususan, Navoiydagi stansiyaning modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishga yordam beryapmiz.

Bundan tashqari, Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan muammolar, jumladan, murakkab iqlim sharoitida barqaror qishloq xoʻjaligini rivojlantirish va texnologiyalar bilan taʼminlash orqali oʻz-oʻziga boʻlgan ishonchini qoʻllab-quvvatlash rejasini ishlab chiqyapmiz. Shuningdek, biz sogʻliqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash va davlat qurilishi uchun inson resurslarini tayyorlash kabi sohalarida koʻmaklashamiz. Yaponiyaning bunday hissasi zamonaviy Oʻzbekiston rivojiga, zarracha boʻlsa-da, yordam bersa, bu biz uchun katta quvonch baxsh etadi.

Chunki Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylari 2016-yilda Prezident lavozimiga kirishganidan soʻng Oʻzbekiston uning rahbarligida barqaror iqtisodiy rivojlanish sari yuz tutdi. Shu munosabat bilan Yaponiya va Oʻzbekiston oʻrtasidagi ikki tomonlama munosabatlar keyingi yillarda tobora



jadal rivojlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylarining 2019-yil dekabr oyida Yaponiyaga buyurgan tashrifi ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini sifat jihatdan yanada yuqori bosqichga koʻtardi va turli sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim bosqich boʻldi.

Oʻshandan beri har ikki davlat energetika va qishloq xoʻjaligi sohalarida yangi sheriklikni ilgari surmoqda, oʻzaro ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, shuningdek, mintaqaviy va akademik aloqalarni mustahkamlash orqali keng koʻlamli gumanitar almashinuvlarni amalga oshirishga harakat qilmoqda.

Markaziy Osiyoning ahamiyatiga oʻz vaqtida eʼtibor qaratgan holda, Yaponiya katalizator sifatida mintaqaviy hamkorlik jarayonini mustaqil olgʻa siljitish uchun mamlakatlarga shart-sharoit yaratish maqsadida 2004-yilda dunyoning boshqa davlatlaridan oʻzib, “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqot formatini tashkil etdi. 20 yildan ortiq vaqt davomida uzluksiz amalga oshirilayotgan koʻplab siyosiy muloqotlar va gumanitar almashinuvlar, jumladan, shu kungacha 9-marta oʻtkazilgan tashqi ishlar vazirlari uchrashuvlari Yaponiya va Markaziy Osiyoni bogʻlovchi mustahkam boʻgʻingʻa aylandi.

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo mustahkam iqtisodiy rivojlanishga erishdi hamda uning Yevropa va

Osiyoni bogʻlovchi muhim savdo yoʻli sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Shu bilan birga, Yaponiya tomoni xalqaro vaziyatning oʻzgarishi munosabati bilan Markaziy Osiyo davlatlari turli taʼsir turlarini boshdan kechirayotganini yaxshi tushunadi. Aynan hozir, Markaziy Osiyo atrofidagi vaziyat keskin oʻzgarib borayotgan bir paytda, mintaqaviy hamkorlik zarur.

Bunday vaziyatda Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylari Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi muloqotni rivojlantirish, davlat chegaralari va suv resurslari kabi muhim masalalar boʻyicha konstruktiv va tinch muloqotni taʼminlashda yetakchi rol oʻynamoqda.

Bu yoʻnalish “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti maqsadiga toʻliq mos keladi. Mavjud vaziyatni inobatga olgan holda, Yaponiya tomoni “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti doirasida mintaqaga bilan munosabatlarni yanada mustahkamlash, birgalikda qonun ustuvorligiga asoslangan erkin va ochiq xalqaro tartibni qatʼiy qoʻllab-quvvatlash niyatida. Tashrifimdan asosiy maqsad ham shu.

27-avgust kuni Oʻzbekiston tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov bilan kechadigan uchrashuvda, ikki davlat tashqi siyosat idoralari rahbarlarining birinchi strategik muloqoti doirasida siyosat, iqtisodiyot va madaniyat kabi turli sohalaridagi munosabatlarni yanada rivojlantirish, xalqaro chaqiriqlarga birgalikda javob berish masalalari yuzasidan samimiy fikr almashamiz.

Yaponiya tomoni Oʻzbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga kadrlar tayyorlash, “yashil” energiya, asosiy ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish hamda boshqa yoʻnalishlarda koʻmaklashishda davom etadi va shu orqali jadal rivojlanayotgan Oʻzbekiston bilan oʻzaro manfaatli hamkorlik salohiyatini rivojlantiradi.

Xulosa oʻrinda shuni taʼkidlashni istardimki, joriy yilning aprel oyida Osaka shahrida boshlangan “Kelajak jamiyatini hayotimuz uchun loyihalash” mavzuidagi butunjahon koʻrgazmasida “Bilmlar bogʻi” (“The Garden of Knowledge”) konsepsiyasi aks ettirilgan Oʻzbekiston pavilyoniga har kuni koʻplab mehmonlar tashrif buyurmoqda. 17-avgust kuni Oʻzbekiston milliy kuniga bagʻishlab Prezident Administratsiyasining Kreativ iqtisodiyot va turizm boʻyicha departamenti rahbari Gayane Umerova xonim ishtirokida juda qiziqarli tadbir boʻlib oʻtdi.

Umid qilamizki, EKSPo koʻrgazmasi ikki mamlakat oʻrtasidagi turli darajadagi iqtisodiy va gumanitar aloqalarni yanada mustahkamlashda muhim turtki boʻlib xizmat qiladi. EKSPo tugashiga salkam bir yarim oy vaqt qoldi, bu vaqt ichida Yaponiyaga yanada koʻproq Oʻzbekiston fuqarolari tashrif buyuradi, degan umiddamiz.

Takesi IVAYA,
Yaponiya tashqi ishlar vaziri.
Tokio

BIR-BIRIDAN UZOQDA BOʻLGAN MAMLAKATLAR OʻRTASIDA HAM UZILMAS RISHTALAR YARATILISHI MUMKIN

Oʻzbekistonning lordaniyadagi faxriy konsuli Luay Abu-Gʻazzoliy “Dunyo” AA uchun intervyyusida lordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning Oʻzbekistonga boshlangan davlat tashrifi haqidagi fikrlarini bildirdi:



Eksklyuziv intervyyu

– Osiyoning turli burchaklarida joylashgan Oʻzbekiston va lordaniya bir qarashda bir-biridan tubdan farq qiladigan mamlakatlardek tuyulishi mumkin. Oʻzbekiston oʻzining boy Buyuk Ipak yoʻli merosi va keng dashtlari bilan lordaniyaning qadimiy Injil landshaftlari va choʻllaridan farq qiladi. Biroq chuqurroq oʻrganib chiqsak, ikki davlat oʻrtasida islom alomatlari asoslangan madaniy aloqalardan tortib, barqarorlik va taraqqiyotga umumiy urgʻu berishgacha chuqur oʻxshashlik borligi ayon boʻladi.

imzolandi. Mazkur kelishuvlar almashinuvlarni osonlashtirib, xalqlar va rasmiy aloqalarni mustahkamlashga sodiqlikning ramziga aylandi.

Tashqi ishlar vazirlari yil davomida muntazam aloqada boʻldi. Ular islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi kabi koʻp tomonlama tadbirlar doirasida uchrashib, mintaqaviy barqarorlik va islom birdamligi yoʻlida mustarak manfaatlarini taʼkidlashdi. 6-avgust kuni telefon orqali muloqot istiqboldagi qoʻshma tashabbuslar kun tartibini ilgari surish yoʻlidagi yangi bir qadam boʻldi.

Soʻnggi yillarda, ayniqsa, 2025-yilda ikki tomonlama munosabatlar misli koʻrilmagan yuksaklikka yetdi, bunga yuqori darajadagi tashriflar, iqtisodiy kelishuvlar va madaniy almashinuvlar taʼsir koʻrsatdi. Oʻzbekistonning lordaniyadagi faxriy konsuli sifatida men shaxsan oʻzim hech qachon kuzatilgan dinamik muloqotning guvohi boʻldim va ishonchim komilki, kelgusida hamkorlik qilish imkoniyatlari juda katta.

2025-yil Oʻzbekiston tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidovning Ammonga tashrifi bilan boshlandi. Basman saroyida lordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn bilan boʻlib oʻtgan uchrashuvda vazir Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy maktubini taqdim etdi.

lordaniya Bosh vaziri oʻrinbosari, tashqi ishlar va muhojirlar vaziri Ayman Safadiy bilan boʻlib oʻtgan muzokaralarda siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Tashrif yakunida asosiy kelishuvlar, jumladan, diplomatik pasport egalari uchun vizadan ozod etish va ikki tomonlama hamkorlik dasturi

investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratovning lordaniyaga tashrifi bilan yangi dinamika oldi. Bu tashrif chogʻida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy imkoniyatlar va qoʻshma korxonalarini rivojlantirish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. Vazir Laziz Qudratov lordaniya investitsiya vaziri va boshqa muhim shaxslar, jumladan, lordaniya fosfat kompaniyasi vakillari bilan uchrashuvlar oʻtkazib, togʻ-kon sanoati, farmatsevtika va oʻgʻit sanoati sohalarida hamkorlik qilish masalalarini muhokama etdi.

Joriy yil avvalida lordaniya Savdo-sanoat palatasi va Oʻzbekiston Savdo-sanoat palatasi oʻrtasida oʻzaro anglashuv

memorandumi imzolandi. Mazkur hujjat ikki mamlakat ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlashda muhim poydevor boʻldi. Oʻzbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi Davron Vahobov ham iqtisodiy masalalarni muhokama qilish, qishloq xoʻjaligi va texnologiya kabi sohalariga eʼtibor qaratish maqsadida Ammonda boʻldi.

Madaniy almashinuvlar Oʻzbekiston – lordaniya munosabatlariga alohida turtki bermoqda. Shu yil may oyida Taʼlim, fan va madaniyat masalalari boʻyicha Islom olami tashkiloti (ICESCO) Samarqand shahrini “Islom dunyosining madaniy poytaxti” deb eʼlon qilish boʻyicha tadbirni oʻtkazdi. Ushbu faxriy unvon Oʻzbekistonning buyuk sivilizatsiyalar chorrahasi sifatidagi tarixiy rolini yanada bir bora tasdiqladi.

Tadbir doirasida lordaniya madaniyat vaziri boshchiligidagi delegatsiya madaniy merosni asrab-avaylash va qoʻshma dasturlar ishlab chiqish masalalarini muhokama qilish maqsadida Samarqandga tashrif buyurdi. Bu tashabbuslar Buxorodagi mahobatli masjidlardan tortib, Ajlun qalʼasi kabi lordaniyaning tarixiy yodgorliklarigacha boʻlgan mamlakatlarni birlashtiruvchi umumiy islom merosini mustahkamlaydi.

Taʼlim sohasi hamkorlikning yangi bir muhim yoʻnalishi. lordaniyada tahsil olayotgan oʻzbekistonlik talabalar soni ortib bormoqda. Oʻz navbatida, Oʻzbekiston axborot texnologiyalari, tibbiyot va qishloq xoʻjaligi kabi sohalarida almashinuv dasturlarini taklif qilish orqali lordaniyalik talabalar uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu saʼy-harakatlar nafaqat inson kapitalini rivojlantirish, balki xalqlarimiz oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlashga ham zamin yaratadi.

Oʻzbekiston va lordaniyaning oʻxshash jihatlari koʻp. Har ikki mamlakatda ham aholi

barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, global muammolarga qarshi kurashda madaniy anʼanalarni saqlashni qadrlab, oʻz yetakchilarini faol qoʻllab-quvvatlamoqda. Oʻzbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyevning anʼanalarga hurmat bilan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish borasidagi islohotlari yuksak baholanmoqda. Xuddi shunday, Podshoh Abdulla II ibn al-Husaynning dono va inklyuziv boshqaruv yoʻli hamda mintaqaviy murakkabliklarni hal etish qobiliyati bilan lordaniyada yuksak hurmatga sazovor boʻldi.

Hamkorlik salohiyati juda yuqori. Turizm, ayniqsa, istiqbolli yoʻnalish sifatida ajralib turadi. Registon maydoni kabi Oʻzbekistondagi YUNESKO obyektlari lordaniyalik sayyohlarni oʻziga jalb qilishi mumkin, lordaniyadagi Oʻlik dengiz va Vadi Ram esa oʻzbeklar uchun noyob tajribalarni taqdim etadi. Viza rejimining yaxshilanishi va toʻgʻridan-toʻgʻri aviaqatnovlarni yoʻlga qoʻyish bilan sayyohlar oqimi sezilarli darajada oshishi mumkin. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, toʻqimachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash boʻyicha qoʻshma korxonalar Oʻzbekistonning tabiiy resurslari va lordaniyaning strategik joylashuvidan foydalangan holda katta salohiyatga ega.

Oʻzbekiston va lordaniya oʻrtasidagi 25-avgust kuni boshlangan oliy darajadagi muzokaralar mamlakatlarimiz oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarda yangi sahifa – oʻzining intensivligi va koʻlami boʻyicha misli koʻrilmagan bobni ochadi.

Diplomatika bosqichlardan tortib, iqtisodiy kelishuvlar va madaniy sinergiyalargacha boʻlgan oʻzaro taʼsirlar mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Faxriy konsul sifatida bu jadallik xalqlarimizga sezilarli darajada foyda keltirib, Osiyo birdamligining eng yaxshi namunasi boʻlgan hamkorlikni rivojlantirishiga umid qilaman. Oʻylaymanki, xalqlarimiz oʻrtasidagi aloqalar yanada mustahkamlanadi va hatto geografik nuqtayi nazardan bir-biridan uzoq boʻlgan mamlakatlarimiz oʻrtasida uzilmas rishtalar yaratiladi.

“Dunyo” AA.
Ammon

TARIX VA TAMADDUNNI BOGʻLOVCHI KOʻPRIK

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston – lordaniya oʻrtasidagi oʻzaro manfaatli hamkorlik yangi bosqichga koʻtarildi. Prezidentimizning taklifiga binoan, lordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn 25-26-avgust kunlari mamlakatimizda davlat tashrifi bilan boʻlib turgani ham fikrimiz tasdigʻidir.

Aks sado

Oliy martabali mehmon ishtirokidagi asosiy tadbirlar Samarqand shahrida boʻlib oʻtyapti. Sammit doirasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklikni rivojlantirish, kimyo hamda farmatsevtika sanoati, qishloq xoʻjaligi, toʻqimachilik, konchilik va boshqa muhim tarmoqlarda yanada samarali hamkorlikni yoʻlga qoʻyish masalalari muhokama etiladi. Shuningdek, madaniy-gumanitar aloqalarni yanada kengaytirishga qaratilgan oʻzaro manfaatli kelishuvlar imzolangan.

Taʼkidlash joizki, lordaniya Hoshimiylar Podshohligi – Yaqin Sharqning yuragida joylashgan, tarixiy meros va madaniyati bilan ajralib turadigan davlat. Tabiiy resurslari cheklanganiga qaramasdan, mamlakat siyosiy barqarorlik va

iqtisodiy taraqqiyotga intilib, turizm, moliya va transport sohalariga tayanadi hamda fosfat xazinalariga ega. Biroq suv tanqisligi, energiyaga qaramlik va mintaqaviy beqarorlik uning rivojlanishini cheklab turadi. 11 milliondan ortiq aholiga ega lordaniya hududi 89,3 ming kvadrat kilometr boʻlib, poytaxti – Ammon shahri. Davlat tuzumi konstitutsiyaviy monarxiya boʻlib, maʼmuriy jihatdan 12 muhofazaga boʻlingan.

Mamlakat Yaqin Sharqda inson erkinligi boʻyicha yetakchi, iqtisodiy erkinlik reytingida esa jahonda yettinchi oʻrinda turadi. Nominal yalpi ichki mahsulot (YAIM) 41,8 mlrd. dollar, yil boshiga daromad esa 4,2 ming dollarni tashkil etadi. Kuchli jihatlari – fosfat eksporti, mehnat resurslari hamda Aqaba porti, zaif

tomonlari esa ishsizlik, savdo balansi manfiyligi va qochqinlar oqimidir. Shunga qaramay Ammon mintaqaning muhim moliyaviy markazi boʻlib, bank, sugʻurta hamda investitsiya xizmatlari rivojlangan. Iqtisodiyotni eksport-importga tayanadi, asosiy sheriklari AQSH, Saudiya Arabistoni va Yevropa Ittifoqi davlatlari. lordaniya tarixiy shaharlar hamda tabiiy goʻzalliklarga boy – Petra, Oʻlik dengiz va Vadi Ram kabi maskanlar dunyoning turli burchagidan sayyohlarni oʻziga chorlaydi. Ayniqsa, qoyalarga oʻyib yasalgan Petra shahri dunyoning yangi yetti moʻjizasidan biri sifatida eʼtirof etilgan.

lordaniya oʻzining Oʻlik dengizi hamda Vadi Ram kabi tabiiy goʻzalliklari, mehmondoʻst xalqi va boy milliy taomlari bilan mashhur. Mamlakat piyoda sayr, alpining va Qizil dengizda shoʻngʻish kabi faol dam olish imkoniyatlarini taklif qiladi, shuningdek, islom, nasroniylilik va yahudiylilik uchun muqaddas joylari bilan muhim diniy markaz hisoblanadi. Konstitutsiyaviy monarxiya tartibida boshqariladigan lordaniyada Podshoh keng vakolatlarga ega boʻlib, parlament ikki palatadan iborat, qonunchilik esa shariat va Yevropa

huquqiy anʼanalari uygʻunligiga asoslanadi.

Oʻzbekiston lordaniya bilan koʻp yillik aloqalarga ega boʻlib, BMT, Islom hamkorlik tashkiloti va ICESCO doirasida ham sheriklik qilib kelmoqda. Ikkala xalq ham qadimiy meroslarni saqlovchi va jahon madaniyatiga oʻz hissasini qoʻshgan. 2024-yilda mamlakatimizga kelgan lordaniya malikasi Dana Firas kelgusida moddiy-nomoddiy meros, sanʼat va madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash muhim maqsad ekanini taʼkidlagan edi.

Aytish kerakki, Oʻzbekiston – lordaniya siyosiy sohada ham yaqin hamkorlik qilib kelmoqda. Oʻtgan yili mamlakatlarimiz tashqi ishlar vazirlari uchrashuvida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, iqtisodiy va sayyohlik aloqalarini kengaytirish hamda xalqlar oʻrtasidagi hamjihatlikni mustahkamlash masalalari muhokama etilib, yakunda diplomatlar uchun vizasiz rejim haqida hukumatlararo bitim hamda 2025 – 2027-yillarga moʻljallangan hamkorlik dasturi imzolandi.

Qolaversa, ikki mamlakat oʻrtasidagi iqtisodiy hamkorlik ham yangi bosqichga koʻtarilmoqda. lordaniya biznesi Oʻzbekiston kelgusiga katta

qiziqish bildirmoqda. “National Arab Mining Co.”, “Jordan Phosphate Mines Co.”, “Classic Fashion Apparel Industry” va boshqa yirik kompaniyalar bilan qator loyihalar yuzasidan kelishuvga erishildi. Bu savdo-iqtisodiy aloqalarda yangi sahifa ochdi. Neft xazinalariga ega boʻlmagan lordaniya farmatsevtika, toʻqimachilik hamda xizmatlar sohasiga asoslangan diversifikatsiyalangan iqtisodiyoti bilan qimmatli hamkor sifatida namoyon boʻlmoqda.

Oʻzbekiston va lordaniya Markaziy Osiyo hamda Yaqin Sharqda tinchlik, barqarorlik hamda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda hamkorlikni muhim, deb biladi. Siyosiy maslahatlashuvlar ikki davlatni xalqaro muammolarga umumiy yondashuvda yaqinlashtirmoqda.

Shu bilan birga, transport yoʻlaklari hamda logistika sohasida hamkorlik tranzit salohiyatini oshirishi mumkin. Turizm va madaniyat sohalarida qoʻshma loyihalar tarixiy merosni targʻib etish hamda xalqlar oʻrtasida doʻstlikni mustahkamlaydi. Umuman, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar yoʻnalishlardagi hamkorlik barqarorlik hamda oʻsishga xizmat qilmoqda.

lordaniya Yaqin Sharqda tinchlik

jarayonida faol ishtirok etmoqda, qochqinlarni qabul qilishda masʼuliyatli davlat hisoblanadi va xalqaro tashkilotlar hamda Gʻarb bilan yaqin hamkor. Terrorizmga qarshi kurashda ham muhim rol oʻynaydi. Oʻzbekiston ham shunga oʻxshash pozitsiyaga ega boʻlib, Isroil – Falastin mojarosini ikki davlat yechimida koʻradi hamda falastinliklarga amaliy yordam koʻrsatmoqda.

lordaniya iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklarga qaramay, turizm, moliya va savdo orqali oʻsishni davom ettirmoqda hamda mintaqadagi oʻrinni mustahkamlamoqda. Podshoh Abdulla II ibn al-Husaynning Oʻzbekistonga tashrifi esa ikki davlat munosabatlarida yangi bosqich ochadi. Iqtisodiy hamda ijtimoiy munosabatlarga turtki berib, savdo va havo qatnovlarini yoʻlga qoʻyish imkonini beradi. lordaniya Oʻzbekistonni “mintaqaga kalit” sifatida koʻradi va asosiysi, ikki davlat Markaziy Osiyo hamda Yaqin Sharqni bogʻlovchi koʻprikl boʻlishga intilmoqda.

Azamati MUXTOROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining falsafa kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor.

TASHRIF DOIRASIDAGI
TADBIRLARGA TAYYORGARLIK QANDAY?

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasining shu yil sentyabr oyida Belarus Respublikasiga amalga oshiradigan tashrifi doirasida o'tkazilishi rejalashtirilgan qator tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilish

doirasidagi asosiy tadbirlarni yuqori darajada tashkil etish, ustuvor mavzular

Unda senatorlar, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari hamda mutasaddilar qatnashdi. Yig'ilishda bo'lajak tashrif

va hamkorlik yo'nalishlari muhokama qilindi. Jumladan, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, yengil sanoat, tibbiyot, ta'lim

hamda turizm sohalariga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, O'zbekiston – Belarus tadbirkor ayollarining uchinchi biznes forumida 7 ta mavzu bilan bog'liq seksiyalar o'tkaziladi. Ular doirasida tegishli sohalar bo'yicha tajriba almashish, hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan ikki

tomonlama hujjatlar imzolanishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, tashrif doirasida Vitebsk shahrida "Made in Uzbekistan" milliy ko'rgazmasini o'tkazish ham nazarda tutilgan. Unda mamlakatimizning oziq-ovqat, farmatsevtika, yengil sanoat, turizm, hunarmandchilik va elektronika sohalarida faoliyat yuritayotgan 50 dan ziyod tadbirkor ayollarning mahsulotlari namoyish etiladi.

Yig'ilish yakunida biznes forumini yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha vazirlik va idoralar mas'ullariga aniq topshiriqlar berildi.

"Xalq soʻzi".

XALQ BILAN
HAMNAFASMIZ

Mustaqillik – avvalo, xalqimizga o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini bergan ulug' ne'mat. Istiqloq sabab yurtimiz dunyoga qayta yuz ochdi. Uch ming yillik davlatchilik tariximizda yangi sahifa ochildi. Inson qadrlini ulug'lash, huquq va manfaatlari ustuvorligini ta'minlashga barcha sa'y-harakat yo'naltirildi.

Mushohada

Albatta, ularning zamirida mustaqillik bergan imkoniyatlar mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Ayniqsa, so'nggi sakkiz yilda mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lidagi tarixiy islohotlar jadal olib borildi. Barcha jabhada ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar xalqimizning ertangi kunga bo'lgan ishonchi va farovon hayotga intilishini mustahkamlayapti. Bugun biz faxr bilan ayta olamizki, O'zbekiston yangi tarixiy bosqichga qadam qo'yd.

Avvalo, Konstitutsiyamizning yangi tahrirda qabul qilingani xalqchil islohotlar uchun poydevor vazifasini o'tayotganini ta'kidlash lozim. Zero, Bosh qomusimizda "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" deya mustahkamlangan qoida hayotimizda yaqqol aks etmoqda.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yaratmay turib, adolatli jamiyat qurish imkonsiz. Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgani, "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari" kabi mexanizmlar yaratilgani aholining kambag'al qatlamlarini qo'llab-quvvatlashda qo'l kelmoqda. Ushbu dasturlar orqali har yili qiyin vaziyatga tushib qolgan qariyb 540 ming oilaga turli ko'rinishdagi ijtimoiy yordamlar ko'rsatilmoqda. Natijada 2017 – 2024-yillarda 3,5 mln. nafardan ortiq fuqarolarga moddiy va huquqiy ko'mak berildi, 2,2 millionta yangi ish o'ri yaratildi, kambag'allikning sezilarli darajada pasayishiga erishildi.

2025-yilda Davlat byudjeti xarajatlarning 52 foizi, ya'ni 177,7 trln. so'm turli sohalariga – ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqa ijtimoiy yo'nalishlarga ajratilgani ham yurtimizda inson qadri tobora ulug'lanib borayotganining yorqin ifodasidir.

Inklyuziv ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgani esa imkoniyati cheklangan yoshlarga sifatlil bilim berishga zamin yaratadi. Shu kungacha inklyuziv ta'lim joriy etilgan maktablar soni 947 taga yetkazilib, unga 2 ming nafarga yaqin o'quvchilar qamrab olindi.

Amaliyot bilan uyg'unlikni kuchaytirish maqsadida yo'lga qo'yilgan dual ta'lim tizimida bugungi kunda 15 ming talaba 957 ta turli korxonaga birkitirildi.

Bilimli, salohiyatli qizlarga berilayotgan imtiyozlar ko'lami ham salmoqli. Bakalavr bosqichida to'lov-shartnoma asosida ta'lim olayotgan qizlarga 7 yilgacha foizsiz kredit ajratilayotgani, magistratura bosqichiga kirgan qizlarning shartnoma to'lovlar byudjet hisobidan to'liq qoplab berilayotgani ham Bosh qomusimizda qayd etilgan "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar zalvarini ko'rsatib turibdi.

"Yoshlar" – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" shiori doirasida so'nggi 8 yilda 1,5 mln. nafar yigit-qiz axborot texnologiyalariga o'qitildi, 500 ming nafar yosh o'z tadbirkorlik faoliyatini boshladi. Bu choralar ularni yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Sakkiz yillik tarix ko'z oldimizdan o'tar ekan, islohotlar zamirida xalqimizga munosib turmush

"Xalq soʻzi".

ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI
SHAKLLANTIRISH YO'LIDA

Kecha Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev boshchiligidagi "Fuqarolik tashabbusi" milliy mukofoti tanlovini o'tkazish bo'yicha Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari, qator vazirlik hamda idoralar vakillaridan iborat tashkiliy qo'mitaning dastlabki majlisi o'tkazildi.

Tanlov

Ta'kidlash kerakki, "Fuqarolik tashabbusi" milliy mukofoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida ta'sis etilgan.

"Fuqarolik tashabbusi" milliy mukofoti tanlovi mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan fuqarolik jamiyati institutlari, faol jamoatchilik vakillari hamda tashabbuskor fuqarolarni rag'batlantirish maqsadida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-

quvvatlash jamoat fondi tomonidan har ikki yilda o'tkazilishi nazarda tutilgan. Ushbu tanlov joriy yilda ilk marotaba tashkil etilmoqda.

Tanlovda quyidagi 8 ta nominatsiya bo'yicha g'oliblar aniqlanadi:

- inson huquq va erkinliklarining samarali himoyachisi;
- yoshlar siyosati sohasidagi tashabbuskor yetakchi;
- mahallalardagi jamoatchilik tuzilmalarining faoli;
- eng faol jamoatchilik nazoratchisi;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha faol va tashabbuskor;

- ijtimoiy innovatsiyalar va rivojlanish bo'yicha eng faol va tashabbuskor;
- inklyuziv jamiyat barpo etish bo'yicha eng faol tashabbuskor;
- metsenatlik faoliyati bo'yicha eng faol va tashabbuskor.

G'oliblar tashkiliy qo'mita xulosasi hamda keng jamoatchilik fikri asosida aniqlanadi va nominatsiyalar g'oliblari – birinchi o'rin BHMning 50 baravari, ikkinchi o'rin BHMning 40 baravari, uchinchi o'rin BHMning 30 baravari miqdorida pul mukofoti, maxsus statuетка va sertifikat bilan taqdirlanishi ta'kidlandi.

Tanlovda qatnashish uchun 2025-yilning

1-oktyabriga qadar Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va uning hududiy bo'linmalariga so'nggi ikki yilda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlari, faol jamoatchilik vakillari va tashabbuskor fuqarolar shaxsiy ma'lumotlari, faoliyati hamda erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi hujjatlar bilan birga ariza topshirishi mumkin.

Majlis yakunida tanlov haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish, g'oliblarni shaffof tizim orqali aniqlash hamda tanlovni o'tkazish bilan bog'liq boshqa tashkiliy masalalar yuzasidan kelishib olindi.

"Xalq soʻzi".

BITIRUVCHILAR BANDLIGINI
TA'MINLASH – BUGUNNING
USTUVOR VAZIFASI

Avval xabar qilganimizdek, Oliy Majlis Senati a'zolari hududlarda bo'lib, bitiruvchi yoshlarni ish bilan ta'minlashning holati bilan tanishmoqda. Qashqadaryo viloyatida Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasida doimiy asosda ishlovchi senator Zumrad Bekatova ishtirokida yoshlar, xususan, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash bo'yicha ishchi guruh yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Senat va yoshlar

Yig'ilishda yoshlar bandligini oshirish, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash, yangi ish o'rinlari yaratish, shuningdek, oliy o'quv yurtlari va ish beruvchilar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga oid masalalar muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, hozirgi

kunda mehnat bozorida raqobatbardosh, ixtisoslashgan mutaxassislarga ehtiyoj oshib bormoqda. Shu munosabat bilan bitiruvchilarni amaliy kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning real sektorda ishga joylashishiga ko'maklashish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

TADBIRKORLAR UCHUN
IMKONIYAT VA IMTIYOZLAR

Xususiy tadbirkorlik har qanday bozor iqtisodiyotida muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda xususiy sektorni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ayniqsa, tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, ma'muriy to'siqlarni qisqartirish, soliq yukini yengillashtirish, yagona elektron tizimlar joriy etish borasida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Prezidentimizning qator Farmon va qarorlari bilan litsenziya va ruxsatnomalar soni qisqartirilib, tekshiruvlar tartibi soddalashtirildi.

Sharh

Bunday qulayliklar, Tadbirkorlikni rivojlantirish jamg'armasi orqali imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratilayotgani tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biznes-ombudsman institutining tashkil etilganini esa tadbirkorlar huquqiy himoyasining kafolati sifatida e'tirof qilish mumkin.

So'nggi yillarda sohaning huquqiy asoslari ham takomillashib bormoqda. Birgina joriy yilning o'tgan davrida Qonunchilik palatasi tomonidan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, energetika, rieltorlik

faoliyati, transport, yo'l infratuzilmasi, zargarlik sanoati, agrar va qishloq xo'jaligi sohalarida xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan ko'plab qonun loyihalari muhokama etilib, qabul qilindi.

Prezidentimizning 2021-yildan buyon tadbirkorlar bilan o'tkazib kelayotgan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvlarda ularni qiynayotgan tizimli muammolarni hal etish choralarini belgilab berayotgani yurtimizda tadbirkorlikning yanada rivojlanishi, iqtisodiyotimizdagi ulushining ortib borishiga xizmat qilayotir.

Yangi Toshkentda bo'lib o'tgan navbatdagi uchrashuvda ham davlatimiz rahbari iqtisodiyoti qudratli, sanoati raqobatbardosh, moliyaviy tizimi barqaror, barcha sohalarini investorlar uchun jozibador bo'lgan yangi O'zbekistonni barpo etishda tadbirkorlarning xizmati beqiyos ekanini aytib, ularning muammolarini hal qilish yuzasidan aniq yechimlarni belgilab berdi.

Xususan, tadbirkorlarni qiynab kelayotgan sertifikat masalasiga to'xtalar ekan, endilikda import jarayonida muvofiqlik sertifikatlari har bir partiya emas, shartnomada ko'rsatilgan hajm uchun berilishi urgulandi.

Bu bejiz emas, albatta. Chunki hozirga qadar import mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash maqsadida beriladigan muvofiqlik sertifikatlari har bir partiya uchun alohida rasmiylashtirilib kelingan. Bu esa tadbirkorlarga noqulayliklarni keltirib chiqarardi. Import mahsulotlariga muvofiqlik sertifikatini shartnomada ko'rsatilgan hajm uchun

berilishi tadbirkorlarning ayni dilidagi gap bo'lib, ular uchun bir qator yengilliklar yaratadi.

Birinchidan, har bir partiya uchun alohida sertifikat olish zarurati yo'qolgan sababli laboratoriya tahlillari, sertifikatlash xizmati uchun to'lanadigan to'lovlar va logistika xarajatlari kamayadi. Bu esa tadbirkorlarga mahsulot tannaxrini pasaytirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, har bir partiyaning kutmasdan, umumiy shartnoma hajmi uchun oldindan sertifikat olish orqali yuklarni tezroq rasmiylashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu bilan import jarayonidagi kechikishlar kamayib, aylanma mablag' oqimi tezlashishi ta'minlanadi.

Uchinchidan, har safar alohida hujjatlar tayyorlash, organlar bilan aloqa qilish kerak bo'lmagani uchun byurokratik to'siqlar kamayib, tadbirkorlarning o'z faoliyatini samarali tashkil etishiga imkon bo'ladi.

To'rtinchidan, umumiy hajm bo'yicha beriladigan sertifikatlar mahsulotning butun partiyasi uchun aniq va

ishonchli sifat kafolatini taqdim etadi. Bu, o'z navbatida, bozorda ishonch mustahkamlanishiga olib keladi.

Ushbu tartibning amalga oshiriliishi natijasida import jarayoni liberallashadi. Xarajatlar kamayishi va jarayonlarning tezlashishi mahalliy tadbirkorlarga import mahsulotlarni arzon va raqobatbardosh narxlarda taklif etish imkonini beradi. Asosiysi, import xomashyo va butlovchi qismlarni olib kirish osonlashadi. Bu esa ichki sanoat va ishlab chiqarish sektorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muvofiqlik sertifikatlarining shartnoma hajmi bo'yicha berilishi tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim islohotdir. Bu nafaqat ularning xarajat va vaqtlarini tejaydi, balki umumiy iqtisodiy faollikni oshirishga, tashqi savdo hajmini kengaytirishga turkii beradi. Muhimi, byurokratik to'siqlarning qisqarishi va jarayonlarning shaffoflashishi orqali mamlakatdagi investitsiya muhiti yaxshilanadi.

Rahmatillo SHUKUROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

YANGI OʻZBEKISTON: TARAQQIYOT YOʻLIDA BARQAROR RIVOJLANISH

“Dunyodagi har bir davlatning milliy suvereniteti va mustaqilligi shu mamlakatning xalqaro huquq subyekti sifatida jahon hamjamiyatidan munosib oʻrin egallashi, oʻz xalqining tinch va farovon hayotini, uning eng muhim manfaatlarini taʼminlashga xizmat qiladigan mustahkam siyosiy-ijtimoiy zamin va kuch-qudrat manbaidir”. Ushbu fikrlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 10-iyulda qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining oʻttiz toʻrt yillik bayramiga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish toʻgʻrisida”gi qarorida alohida taʼkidlangan.

Bugungi kunda yangi Oʻzbekiston ortga qaytmas demokratik islohotlar yoʻlidan dadil odimlamoqda, pragmatik tashqi siyosat yuritmoqda. Jahon hamjamiyati bilan ochiq va faol muloqot olib borish bilan bir qatorda, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlari kuchaytirish borasida keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirmoqda.

Joriy yil boshida, jumladan, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Ayni dasturiy hujjatga muvofiq, inson huquqlari hamda erkinliklarini taʼminlash kafolatlari va institutsional mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha aniq chora-tadbirlar izchillik bilan bajarilmoqda.

Oʻzbekiston Prezidenti taʼkidlaganidek: **“Xalqimizning asrlar davomida turli gʻoya va amaliy harakatlarda shakllangan orzu-intilishlari bugun Yangi Oʻzbekiston konsepsiyasida mujassam boʻlmoqda”**. Bu fikrning naqadar toʻgʻriligini quyidagi aniq dalil va raqamlar yaqqol koʻrsatib turibdi:

milliy iqtisodiyot jadal oʻsishi natijasida qisqa davrda tarixda birinchi marta mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 110 milliard AQSH dollaridan oshdi;

yurtimizda maktablarning yangi modeli – ijodiy, ixtisoslashtirilgan va Prezident maktablari tizimi yaratilib, maktabgacha taʼlim tizimida qamrov darajasi 2017-yildagi 27 foizdan hozirgi 77 foizga, oliy taʼlimda 9 foizdan 42 foizga oʻsdi;

sportchilarimiz ilk bor Parij Olimpiadasi va Paralimpiadasiing kuchli oʻn beshta jamoasi qatoriga kirdi, Oʻzbekiston tarixida birinchi marta futbol boʻyicha 17 yoshgacha boʻlgan oʻsmirlar terma jamoasi, shuningdek, futbol boʻyicha milliy terma jamoa jahon chempionatiga yoʻllanmani qoʻlga kiritdi.

Yangi Oʻzbekistonning pragmatik diplomatiyasi

Dunyoning turli mintaqalarida qurolli mojarolar, ekologik va texnologiyalar, iqtisodiy inqirozlar, “savdo nizolari”, terrorizm va ekstremizm xavfi kundankun kuchayib borayotgani hech kimga sir emas. Hozirgi shunday oʻta murakkab sharoitda mamlakatimizda yangi Oʻzbekiston tamoyili asosida tinchlik va barqarorlik, oʻzaro hurmat va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalariga ustuvor ahamiyat berilayotgani eʼtiborga loyiqdir.

Global oʻzgarishlar, yangi chaqiriq va tahdidlar sharoitida **yangi Oʻzbekiston diplomatiyasi** mamlakatning iqtisodiy va siyosiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, milliy manfaatlarini himoya qilish va davlatning xalqaro imijini yaxshilashda sezilarli yutuqlarga erishildi.

Soʻnggi yillarda davlatimiz rahbarining qatʼiy siyosiy irodasi tufayli mintaqaning qardosh davlatlari bilan doʻstona aloqalar yangi bosqichga koʻtarildi. Jahon siyosatida **“Markaziy Osiyo ruhi”** va **“Markaziy Osiyo qiyofasi”** kabi tushuncha hamda voqeiliklar paydo boʻldi.

Markaziy Osiyoda ishonch va sheriklikning yangi darajasiga erishilgani jadal oʻzgarishlarga joʻshqin surʼat bagʻishladi. Joriy yil mart oyida Oʻzbekiston, Qirgʻiziston va Tojikiston chegaralari tutashgan nuqtada **“Doʻstlik” stellasi** oʻrnatilgani oʻrtamizda mustahkamlanib borayotgan yaxshi qoʻshnchilik va strategik sheriklik munosabatlarning yana bir tasdiqi boʻldi.

Bugungi kunda **“Yangi Markaziy Osiyo” konsepsiyasi real voqeilikka aylanganmoqda, mintaqada yagona transport-logistika makoni shakllanganmoqda**. Mintaqamiz jadal rivojlanib, iqtisodiy oʻsish va investitsiyaviy faollik markazi sifatida namoyon

boʻlmoqda. Markaziy Osiyo olamshumul tarixiy imkoniyatlardan foydalanib, yaxshi qoʻshnchilik va xavfsizlik, oʻzaro manfaatli hamkorlik va barqaror taraqqiyot makoniga aylanganmoqda.

Markaziy Osiyoni Sharq va Gʻarb, Shimol va Janub oʻrtasidagi toʻlaqonli tranzit xabiga aylantirishga qaratilgan dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada keyingi yillarda oʻzaro savdo hajmi 4,5 barobar, investitsiyalar esa ikki barobar koʻpaydi. Qoʻshma korxonalar soni besh barobar ortdi. Joriy yilda Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston temir yoʻli qurilishi boshlandi. Oʻzbekiston – Turkmaniston – Eron – Turkiya transport yoʻlagi orqali yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshdi.

Faol va pragmatik tashqi siyosat tufayli Oʻzbekiston **xalqaro siyosatning markazlaridan biriga va global gʻoyalarni tashabbuskoriga aylanganmoqda**. Shu yil 3-4-aprel kunlari Samarqandda Yevropa kengashi prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi prezidenti Ursula fon der Lyayen ishtirokida **“Markaziy Osiyo – Yevropa ittifoqi” birinchi sammiti** oʻtkazilgani buning yana bir tasdiqiʼdir. Sammit Oʻzbekiston Prezidenti raisligida hamda Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston va Turkmaniston yetakchilari ishtirokida boʻlib oʻtdi.

Bundan tashqari, **Samarqand iqlim forumi** – Markaziy Osiyoda birinchi marta shunday darajadagi, yaʼni ekologiya va barqaror rivojlanish masalalariga toʻliq bagʻishlangan tadbir oʻtkazildi. Forum mintaq uchun muhim voqea boʻldi va xalqaro hamjamiyat eʼtiborini tortdi: unda BMT Bosh kotibining uchta oʻrinbosari, yirik ekologik tashkilotlar rahbarlari, 30 dan ortiq mamlakat va xalqaro agentliklar, jumladan UNCCD, FAO, UNIDO, UNECE va ICBA vakillari, shuningdek, ekologiya vazirlari va ekspertlari ishtirok etdi.

Parlament mezonlari va bugungi Oʻzbekiston

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkent shahrida 2025-yil 5 – 9-aprel kunlari sayyoramiz miqyosidagi yana bir muhim tadbir tashkil etildi. Bu oʻrinda **“Ijtimoiy rivojlanish va adolat yoʻlidagi parlament harakatlari”** mavzuida boʻlib oʻtgan **Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi** haqida soʻz bormoqda.

Assambleya doirasida **Yosh parlamentariylar global forumi va Xalqaro xotin-qizlar parlament forumi** oʻtkazildi. Forumda 140 dan ortiq mamlakatlardan 2 mingga yaqin parlamentariylar, shuningdek, 20 dan ortiq xalqaro va parlamentlararo tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Markaziy Osiyo tarixida birinchi marta ushbu tadbir Oʻzbekistonda boʻlib oʻtdi. Bu, shubhasiz, Prezidentimiz rahbarligida mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, shuningdek, parlamentarizmi rivojlantirish boʻyicha keng koʻlamli saʼy-harakatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan eʼtirof etilayotganining yorqin samarasidir.

Forumning yakuniy dasturiy hujjati – **“Ijtimoiy rivojlanish va adolat uchun parlament harakati” Toshkent deklaratsiyasining** qabul qilinishi koʻp kunlik munozaralarning mantiqiy hosilasi va xalqaro parlament hamjamiyatining hozirgi zamon ustuvor muammolari boʻyicha konsensusining oʻziga xos ifodasi boʻldi. BMT Bosh Assambleyasi 79-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida tasdiqlangan Toshkent deklaratsiyasi strategik xususiyatga ega boʻlib, global xavfsizlik va tinchlikni mustahkamlash, barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat hamda inson huquqlari va gender tenglikni ilgari surish, yoshlar va inklyuziv taʼlimni qoʻllab-quvvatlash sohasida parlament harakatlarining keng qamrovli hadli dasturi hisoblanadi.

Shuni ham taʼkidlash joizki,



“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida parlament institutini yanada rivojlantirish masalalari ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. **Soʻnggi yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyatning jamiyat va davlat hayotidagi rolini oshirishga qaratilgan 20 dan ortiq qonunlar qabul qilindi.**

Parlamentning Hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ustidan nazorat mexanizmlari, shuningdek, parlamentlararo hamkorlik imkoniyatlari yanada kuchaytirildi. **Hozirgi vaqtda Oliy Majlis palatalari qariyb 100 ta xorijiy parlament bilan yaqin aloqalar oʻrnatgan, 80 ta doʻstlik guruhi va parlamentning qoʻshma komissiyalari samarali faoliyat yuritmoqda.**

Yangi aralash saylov tizimi asosida oʻtgan saylovlar va ayol nomzodlar uchun kvotaning qoʻpaytirilishi siyosiy partiyalarning sezilarli taʼsiri va yangi gender mezoniga ega boʻlgan yanada professional va masʼuliyatli parlamentning shakllanishiga yordam berdi. **Bugungi kunda milliy parlamentda ayollar ulushi 38 foizga yetdi va bu koʻrsatkich Parlamentlararo Ittifoq tomonidan Osiyo mintaqasida soʻnggi 30 yildagi eng yuqori oʻsish sifatida baholandi.**

Quyi palatada parlament koʻpchiligi va muxolifat shakllantirildi. Bundan tashqari, oʻzini parlament muxolifati deb eʼlon qilgan siyosiy partiyalar fraksiyalariga qoʻshimcha huquqlar berishni nazarda tutuvchi parlament muxolifati huquqlarini kengaytirish boʻyicha qonunchilik darajasida chora-tadbirlar qabul qilindi. Yaʼni parlament muxolifati huquqlarining soni 3 tadan 6 taga koʻpaydi. Xususan, bu oʻrinda:

qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqilgunga qadar qonun loyihasining yoki uning ayrim qoidalariining muqobil tahririni kiritish huquqi;

Qonunchilik palatasida bitta qoʻmita raisi lavozimini va ikkita qoʻmita raisining oʻrinbosari lavozimini egallash huquqi; “Hukumat soati” va parlament soʻrovi doirasida har chorakda kamida bitta masala kiritish huquqi misolidagi yangi huquqlar haqida soʻz bormoqda.

Parlament muxolifati Qonunchilik palatasining yalpi majlisi bayonnomasiga muhokama qilinaotgan masalalar yuzasidan oʻzining alohida fikrini ham kiritishi mumkin. Shuningdek, Senat tomonidan rad etilgan qonun boʻyicha kelishuv komissiyasida oʻz vakillarining kafolati qatnashishi huquqiga ega.

Bundan tashqari, ushbu oʻzgarishlardan kelib chiqib, mamlakatimiz hududlarida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining vakolatlari kengaytirildi: ularga 30 dan ortiq vakolatlarni oʻtkazildi va bu jarayon izchil davom ettirilmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy hayotning turli sohalarida mahalliy Kengashlarning rolini kuchaytirishni nazarda tutuvchi **Oʻzbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi** amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, hokimlar deputatlar va jamoatchilik oldida hisobot beradigan “Kengash soati” instituti joriy qilinmoqda. Shuningdek, davlat bojlari, jarimalar, yigʻimlar kabi daromadlarning bir qismini mahalliy byudjetlar foydasiga qayta taqsimlash taklif etilmoqda.

Shunday qilib, mamlakatimizda roʻy berayotgan shiddatli oʻzgarishlar tahlili asosida dadil aytish mumkinki, Oʻzbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, xalqaro maydondagi ishonchli hamkor sifatidagi maqomi sezilarli darajada mustahkamlandi. Bundan tashqari, mamlakatimizning xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik konstruktiv tashabbuslari jahon hamjamiyati tomonidan yakdillik bilan qoʻllab-quvvatlandi.

Kengashlar huzurida Oliy Majlis palatalari qoshida tuzilgan Yoshlar parlamentlariga monand Yoshlar guruhlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, mahallalar, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari va ilmiy doiralar vakillari ishtirokida maslahat guruhlari tashkil etiladi. Endilikda mahalliy Kengashning doimiy komissiyalarida viloyat, Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimining oʻrinbosari lavozimiga nomzodlar dastlabki tarzda muhokama qilinadi hamda hududlarni rivojlantirish dasturlari eshitiladi.

Maʼlumki, **2025-yil may-iyun oylarida Oʻzbekistonning 208 ta tuman va shaharlaridagi 8 852 ta mahallada mahalla raislari saylovi oʻtkazildi.**

Shunday qilib, oʻtgan yil davomida mamlakatimizda vakillik demokratiyasining barcha unsurlari – milliy parlament, mahalliy vakillik organlari va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari sifat jihatdan yangi asosda shakllantirildi.

Yangi Oʻzbekiston – ijtimoiy davlat

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada **Oʻzbekiston – ijtimoiy davlat** ekanligi aniq belgilangan. Chunonchi, 43-moddada davlat fuqarolarning bandligini taʼminlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambagʻallikni qisqartirish choralarini koʻradi, fuqarolarning kasbiy tayyorgarligi va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda ragʻbatlantiradi, deyilgan.

“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasiga koʻra, 2026-yilga borib kambagʻallik darajasini 2022-yildagiga nisbatan ikki baravar qisqartirish, 2030-yilgacha esa kambagʻallik xavfi ostida boʻlgan 4,5 mln. kishining daromadini oshirish va ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming nafar malakali mutaxasssini tayyorlash rejalashtirilgan. Soʻnggi 8 yil ichida mamlakatda 7 milliarddan ortiq kishilar kambagʻallikdan chiqarildi, kambagʻallik darajasi 35 foizdan 8,9 foizga kamaydi. Joriy yilda bu koʻrsatkichni 6 foizga tushirish maqsad qilingan.

Kambagʻallikni qisqartirish va ijtimoiy himoya qilish boʻyicha asosiy vazifalar va chora-tadbirlar qonunchilik va davlat strategiyalarida mustahkam belgilab qoʻyilgan. Xususan, “Kambagʻallikdan farovonlik sari” umummilliy dasturini amalga oshirish boshlandi. Ushbu faoliyatni jadallashtirish uchun Ijtimoiy himoya milliy agentligi va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi.

Oʻzbekiston tajriba almashish va muhtojlarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan loyihalarini amalga oshirish uchun xalqaro tashkilotlar va mamlakatlar bilan barqaror hamkorlik qilishga intilib kelayotgani bejiz emas. Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, koʻp qirrali kambagʻallik boʻyicha oʻzaro muloqot ezgu maqsadlarga erishishga xizmat qiladi va uning yakunlari boʻyicha ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalar global miqyosda kambagʻallikni qisqartirishda yangi qadam boʻladi.

Oʻzbekistonning Ochlik va qashshoqlikka qarshi kurash boʻyicha global ittifoqqa qoʻshilgani – global oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini hal qilish hamda ochlik, qashshoqlik va tengsizlikka qarshi faol kurashda tarixiy qadam boʻldi.

Yil boshidan buyon bu sohada xalqaro tajriba asosida shakllangan modellarni joriy etilmoqda. Xususan, bank tizimi mahallalar bilan faol muloqot qilib, aholi bandligini taʼminlashda koʻmaklashadigan boʻldi.

Bandlikni oshirishda kasb-hunar taʼlimi sifati asosiy omil boʻlib qolmoqda. Bu muhim omil esa ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish, kadrlar tayyorlash darajasini oshirish, xususiy sektorni faol jalb qilishni taqozo etadi. Xususan, internet orqali bepul videokurslarni yoʻlga qoʻyish, shuningdek, ishlayotgan fuqarolarga “kasbiy vaucherlar”dan foydalangan holda qayta tayyorlash yoki malaka oshirish imkoniyatini berish koʻzda tutilgan.

Akmal SAIDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
akademik.



xabarlari

Kurash: terma jamoamiz aʼzolaridan 6 ta medal

Bolgariyaning Samokov shahrida sport kurashlari boʻyicha “U20” yosh toifasidagi jahon chempionati oʻz yakuniga yetdi. Mazkur musobaqada qatnashgan Oʻzbekiston terma jamoasi uch yoʻnalishda 2 ta oltin, 1 ta kumush va 3 ta bronza medallarini jamgʻardi.



Xususan, yunon-rum kurashchimiz Aytjan Xalmaxanov oltin medalga sazovor boʻldi. 63 kilogrammgacha vazn toifasida bahs olib borgan yurtdoshimiz saralash bosqichlarida Yaponiya, neytral maqomda kurashgan Rossiya, Qozogʻiston vakillarini magʻlub etgan edi. Final bellashuvida esa Aytjan armanistonlik sportchini 12:2 hisobida yengdi.

Erkin kurashchimiz Sherzod Poyonov 92 kilogrammgacha

vaznda Gretsiya, Yaponiya, Kanada va neytral maqomda kurashgan rossiyalik sportchilarni magʻlub etdi. Hal qiluvchi bellashuvda esa qozogʻistonlik Kamil Kurugliyevni dogʻda qoldirib, jahon chempionligini qoʻlga kiritdi.

Shuningdek, jahon chempionatida Ahmad Qodirov kumush, Fayozbek Eshmirzayev, Azimjon Soatullayev, Nigina Sobirova bronza medali bilan taqdirlandi.

Tennis: musobaqa qizgʻin kechdi

Fargʻona shahrida tennis boʻyicha “ITF – World Tennis Tour Juniors J100” nufuzli xalqaro turniri boʻlib oʻtdi. Unda Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Tojikiston, Xitoy, Hindiston, Polsha, Rossiya, Belarus va Janubiy Koreyadan kelgan kuchli yosh tennischilar qatnashdi.

Turnir Oʻzbekiston tennis federatsiyasi tomonidan Xalqaro tennis federatsiyasi (ITF) homiyligida tashkil etildi. Yakkalik bahslarining oʻgʻil bolalar oʻrtasidagi final uchrashuvida rossiyalik F. Altuxov Belarus vakili M. Taupenetsni 7:5, 4:6, 7:6(5) hisobida magʻlub etdi. Qizlar oʻrtasida Taupenetsni 7:5, 4:6, 7:6(5) hisobida magʻlub etdi. Qizlar oʻrtasida Taupenetsni 7:5, 4:6, 7:6(5) hisobida magʻlub etdi. Qizlar oʻrtasida Taupenetsni 7:5, 4:6, 7:6(5) hisobida magʻlub etdi. Qizlar oʻrtasida Taupenetsni 7:5, 4:6, 7:6(5) hisobida magʻlub etdi.

Justliklar oʻyini finalida yurtdoshlarimiz A. Abdullayev va D. Kvasov tandemi Polshadan V. Yez va xitoylik tennischik K. Kan bilan boʻlgan qizgʻin bahsda 6:0, 7:6(5) hisobida magʻlub boʻlishdi. Qizlar oʻrtasida rossiyalik K. Axrameeva va A. Xarchenkodan iborat juftlik Qozogʻiston vakillari A. Kakenova va S. Toregenni 1:6, 6:4, 10:7 hisobida yengdi.

Gandbol: Osiyo chempionatidagi zafarli odimlar

Toshkentda gandbol boʻyicha 19 yoshli qizlar oʻrtasida Osiyo chempionati boʻlib oʻtmoqda. Unda qitʼamizning eng kuchli 10 jamoasi gʻoliblik uchun bahs olib boryapti. Turnirda Oʻzbekiston terma jamoasi “A” guruhida Xitoy, Xitoy Taypeyi, Gonkong va Hindiston jamoalari bilan bellashdi.



Osiyo chempionatining ochilish oʻyinida Hindiston terma jamoasiga qarshi parketga chiqqan qizlarimiz 46:29 hisobida zafar quchishdi. Vakillarimiz 2-turda yanada yirik – Gonkong terma jamoasidan 30 toʻp farqi bilan 45:15 hisobida ustun keldi.

“Alpomish” muz saroyida oʻtayotgan bahslarning 3-turida Oʻzbekiston va Xitoy Taypeyi terma jamoalari oʻrtasidagi uchrashuv murosasiz kechdi. Va yakunda vakillarimiz ikki toʻp

farqi bilan – 29:27 hisobida zafar quchdi. Shu tariqa guruhda ketma-ket uchta gʻalaba qoʻlga kiritildi. Endi toʻrtinchi oʻyin asosiy raqib – Xitoy terma jamoasiga qarshi boʻlib oʻtadi.

Maʼlumot oʻrnida aytish joiz, ushbu qitʼa birinчилиgi kelgusi yil “U20” yosh toifasida oʻtadigan jahon chempionatiga saralash vazifasini oʻtaydi.

Sunnatilla ISLOMOV
(“Xalq soʻzi”) tayyorladi.

INSON QADR TOPGAN YURT

Shu kunlarda Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi bayrami shukhi keziy yuribdi. Eng ulug', eng aziz bayramimiz quvonchi odamlarimizning yuz-ko'zlarida, ko'tarinki kayfiyatida yaqqol aks etmoqda.

Qutlug' ayyom arafasida Prezidentimizning qator farmonlariga muvofiq turli sohalarida faoliyat olib borayotgan, mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo'shayotgan ko'plab yurtdoshlarimiz faxriy unvon,

orden va medallar bilan taqdirlangan bayram shukuhini yanada oshirdi. Bu yangi O'zbekistonda inson qadr topayotganining yana bir amaliy namunasi bo'ldi. Shuningdek, bir guruh marhum olim va ijodkorlarning mukofotlanishi esa fidokorona mehnat hech qachon beiz ketmasligining ifodasi sifatida ularning oila a'zolari, yaqinlari, shogirdlari qalbini quvonchga to'ldirdi.

Millatning o'tlug' kuychisi

Nilufar QOSIMOVA
(marhum olim – "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibi Begali Qosimovning qizi):

– Dadam butun umrini ilm-fanga, jadicilik harakatini o'rganishga, ularning adabiyotimiz, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga bag'ishladi. Jadid bobolarimizning asosiy g'oyalarini o'z umrining mezoniga aylantirdi.

Ul zot beqiyos darajada ichki mustahkamlikka ega, so'zi bilan ishi, tili bilan dili bir inson edi. Eng qiyin paytlarda ham fikrida qat'iy turganini hamkasblari, shogirdlari yaxshi eslashadi. Hech qachon imon-e'tiqodiga, insoniy martabasiga xiyonat qilmadi. Dadam bizga doim: "Ilmli bo'ling. Ilm millatni yuksaltiradi", derdi.

Ijodxonasiga kirsak, yuragimiz hapriqib ketadi. Asarlari, kitoblari, qo'lyozmalarining har biri biz uchun qadrlidir. Unda dadamizning nafari, ko'z nuri, qalb qo'ri, sochlarining oqi, umrining mazmuni qolgan. Davrlar kechmishi bilan sarg'ayib ketgan sahifalarni ko'zlariga surtib o'rgandi. Hatto nomi tilga olinishga hayiqilgan davrlarda ham



Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon qo'lyozmalarini chuqur tadqiq etdi. Tadqiqotlarida aniq maqsad, mantiqiy badiiy tahlil, badiiy-estetik talqin yetakchilik qildi. O'zbek adabiyotshunosligini o'zining fundamental tadqiqotlari bilan boyitdi. Ancha og'ir yillarda ham o'z a'moliga qarshi bormadi. Maqsadni aniq qo'yib, o'z yo'lidan qaytmadi. Shu ishlarning samarasi o'laroq, shu qutlug' kunlarda dadamizning "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan milliy adabiyotimizga, jadidlarimizga, ilmimizga yuksak e'tibor bo'ldi. Prezidentimizga oilamiz, dadamning hamkasblari, ilmiy ishlarini davom ettirib kelayotgan yuzlab shogirdlari nomidan minnatdorlik bildiramiz.

Qo'qon hunarmandchilik maktabi uchun yuksak baho

Mirzayunus UMAROV,
Respublika "Hunarmand" uyushmasi a'zosi, yog'och o'ymakori, "Shuhrat" medali sohibi (Farg'ona viloyati):

– Asrlar mobaynida sayqallanib, avlodlar avlodga o'tib kelayotgan milliy hunarmandchilik rivojida bobomiz Qodirjon Haydarov asos solgan Qo'qon maktabining ham o'z o'rni bor. Qo'qon yog'och o'ymakorligi qo'l mehnati orqali san'at darajasida bajariladigan serjilo naqshlari, gullari va bezaklari bilan ajralib turadi.

Davlatimiz rahbarining e'tibori tufayli keyingi yillarda milliy hunarmandchilgimiz, xususan, yog'och o'ymakorligi zamonaviy mezonlar asosida rivojlanmoqda. Ayniqsa, 2019-yildan buyon Qo'qon shahrida o'tkazib kelinayotgan Xalqaro hunarmandchilik festivali tufayli yoshlar o'rtasida ushbu hunarga bo'lgan qiziqish yanada kuchaydi. Ayni kunlarda o'nlab shogirdlar, farzand va nabiralar bilan

birga joriy yilning 19 – 21-sentyabr kunlari shahrimizda bo'lib o'tadigan uchinchi Xalqaro hunarmandchilik festivaliga qizg'in tayyorgarlik ko'rmogdamiz. Shu maqsadda mahalliy va xorijlik sayyohlarga namoyish etish uchun Qo'qon yog'och o'ymakorligi an'analari asosida rang-barang mahsulotlar tayyorlanyapti. Tarixiy O'rda maydoni, madaniy obidalar, turizm marshrutlari ro'yxatiga kiritilgan manzillarda bezak berish, pardozlash ishlariga ko'maklashilmoqda.



Mukofot katta mas'uliyat yukladi

Otabek USANOV,
Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani prokurori, "Sodiq xizmatlari uchun" medali sohibi:

– Bugun prokuratura

organlari nafaqat qonun ustuvorligini ta'minlash, shu bilan bir qatorda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ham faollik ko'rsatib kelmoqda. Sohaning obro'-e'tibori har qachongidan-da yuksalib boryapti.

Men 18 yildan buyon prokuratura tizimida, 2023-yilning avgust oyi, ya'ni roppa-rosa 2 yildan buyon Dehqonobod tumani prokurori vazifasida ishlab kelyapman.

Prezidentimiz Farmoniga asosan "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan mukofotlanishim, avvalo, prokuratura tizimida faoliyat olib borayotgan barcha hamkasblarimning mehnatlariga berilgan yuksak baho, deb bilaman.

Har bir davlat mukofotida Bosh prokuratura rahbariyati va hamkasblarimning mehnati zohir. Ko'p yillik mehnatim zamiridagi kasbga bo'lgan sadoqatim davlatimiz rahbari tomonidan e'tirof etilgani, avvalo, yuksak ishonch namunasidir. Bunday ishonch o'z-o'zidan mas'uliyat hissini yanada oshiradi.



O'zbekiston, senga xizmat qilish ulug' sharaf!

Muhabbat XALIKOVA,
Termiz shahridagi 2-oilaviy bolalar uyi rahbari, II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni sohibi:

– Ochig'i, davlatimiz rahbari Farmoni bilan II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan taqdirlanganim men uchun beqiyos g'urur va mas'uliyatdir. Bunday yuksak e'tirofni bir mening emas, avvalo, farzandlarim deb mehnat qilayotgan, yuragini bolalarga bag'ishlagan barcha onalarning, tarbiyachilarning, bolalar uylarida sidqidildan ishlayotgan fidoyi insonlarning mehnatiga berilgan yuksak baho, deb bilaman.

Bizga yaratib berilayotgan imkoniyatlar – farovon hayot, tinchlik, osoyishtalik, ilm-fan, ta'lim, sport va boshqa sohalaridagi keng yo'llar, ularning barchasi Yurtboshimizning yuksak g'amxo'rliqi samarasi.

Termiz shahrining Guliston mahallasidagi oilaviy bolalar uyimizda har bir bola o'zini otana bag'ida o'sayotganday his qiladi. Ular uchun barcha qulaylik yaratilgan: o'qishga, sport bilan shug'ullanishga, to'liq kamol topishiga zamonaviy shart-sharoit



bor. Tikuvchilikka qiziqqan qizlar uchun ham alohida sharoitlar tashkil etganmiz. Xullas, bir oila – bir tanu bir jon bo'lib yashayapmiz.

Biz, tarbiyachilar, farzandlarimizni Vatanga sadoqatli, bilimli, ezgu maqsadli qilib tarbiyalashga intilyapmiz. Chunki kelajak ularniki. Biz shu kelajak uchun mas'ul ekanimizni to'liq his etamiz.

Yana bir bor, davlatimiz rahbariga, bizga hamisha yelkandosh bo'lib kelayotgan hamkorlarga chin qalbdan rahmat aytaman. Biz bu ishonchni oqlash uchun yanada mas'uliyat bilan, mehr bilan, sadoqat bilan mehnat qilishda davom etamiz. Aziz Vatanim – O'zbekiston, senga xizmat qilish – eng ulug' sharaftir!

Tinchlik – ibodatimiz halovati, turmushimiz saodati

Mirzamaxsud ALIMOV,
Andijon viloyati bosh imom-xatibi, "Imom Buxoriy" ordeni sohibi:



– Alloh taolaga benihoya hamdu sanolar bo'lsinki, jonajon Vatanimiz mustaqilligining 34 yillik bayramini tinchlik va ofiyat ila kutib olmoqdamiz. Bu Yaratganing yurtimizga bergan ulkan marhamatidir.

Sonnggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan diniy-ma'rifiy sohaga katta e'tibor qaratilmoqda. Imom-xatib va soha xizmatchilarining malakasini oshirish, ularning sa'y-harakatlarini munosib rag'batlantirish yo'lga qo'yildi. Bu islohotlar soha taraqqiyotiga yangi ruh va kuch bag'ishlamogda.

Ulug' ayyom arafasida "Imom Buxoriy" ordeni bilan taqdirlanishimni davlatimiz rahbarining, xalqimizning islom ma'naviyatiga bo'lgan e'tibori mevasi, deb bilaman. Bu mukofot zimmamizdagi mas'uliyatni yanada orttirib, ezgu ishlarimizni davom ettirishga undaydi.

Mana shunday ulug' kunlarda Yaratgandan Vatanimiz hamisha tinch, el-yurtimiz omon, hayotimiz farovon bo'lishini so'raymiz. Alloh taolo barchamizni asrasin, Vatanimiz ravnaq topaversin!

Jamoamiz mehnatlari e'tirofi

Farhod BOYNAZAROV,
Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri bosh rejissori, "Do'stlik" ordeni sohibi:

– Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri mamlakatimiz teatr san'ati rivojida o'z o'rniga ega bo'lgan katta ijodiy dargohlardan biri hisoblanadi. Bu yerda ko'plab san'at darg'alari faoliyat olib borishgan, qancha-qancha mashhur asarlar sahnalashtirilgan.

Men ham 2008-yildan buyon ana shu dargohda dastlab oliy toifali aktyor, 2022-yildan esa bosh rejissori sifatida faoliyat yuritib kelayotganimdan doim g'urur va iftixor tuyaman.

Bugungi kunda ham teatrimizda juda ahil va katta ijodiy salohiyatga ega jamoa yig'ilgan. Jamoamizning hamjihatlikda, hamfikrlilikda olib borayotgan ishlari, mehnatlari evaziga sonngi yillarda teatrimizda sahnalashtirilgan ko'plab spektakllar tomoshabinlar va mutaxassislar tomonidan yuqori e'tirof etildi. Dunyoning qator davlatlariga ijodiy safarlar



uyushtirdik. Ko'plab nufuzli xalqaro tanlovlar, festivallarda yurtimiz nomidan qatnashib, yuqori o'rinlarni qo'lga kiritdik.

Mustaqilligimizning 34 yillik shodiyonalari oldidan Prezidentimiz Farmoniga asosan "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlanishimni ham, avvalo, jamoamiz mehnatlarining e'tirofi, deb bilaman.

Bundan keyin ham yurtimiz teatr san'atini rivojlantirish yo'lida o'zimiz bor bilimim, iste'dodim, kuch va shijoatimni safarbar qilishda davom etaveraman.

Kitoblar odamlarga o'xshaydi

Davlat TOSHEV,
O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi, miniatyurachi rassom, "Shuhrat" medali sohibi (Buxoro shahri):

– Miniatura san'atiga yoshligimdan ixlos qo'yganim. Yashirmayman, o'ta sermashqatqat ish. Ba'zan sayyohlar kuzata turib, "Bu yumushni nimaning evaziga bajarish mumkin?" deya hayratlanishadi. Men shunda ularga "Xalqimizda "Sabrning tagi oltin", degan naql bor. Sabr-toqat, ishtiyiq, bilim va qunt bilan ishlansa, bu san'at sirilarini egallash mumkin", deya javob beraman.

Qo'l mehnati asosida san'at asarlari yaratayotgan hunarmandlar bugun alohida e'zozda. Davrlarning to'ri bizga atalgan, desak, mubolag'a emas. Niderlandiyaning Leyden universiteti, Shveysariyaning Sankt-Gallen va Turkiyaning Marmara universitetlari kutubxonalarda saqlanayotgan Sharq qadimiy qo'lyozma kitoblarini ta'mirlash ishlarida ishtirok etib, bunga yana bir katta ishonch hosil qildim. Istiqbol bayrami arafasida bir guruh yurtdoshlarimiz qatorida davlat mukofoti bilan taqdirlanishim ham xalq amaliy san'ati ustalariga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibordan nishonadir.

O'ylab qarasam, kitoblar insonlarga o'xshaydi. Ular ham mehr-e'tiborga, qarovga ehtiyoj sezadi. Binobarin,



hayotimni miniatyura san'atiga bag'ishlaganim ortidan qadimiy asarlarni ta'mirlash, ular umriga umr qo'shayotganimdan xursandman.

"Ustoz – shogird" bolalar amaliy san'at markazimiz Buxoroning eski shahar qismida joylashgan. Bu yerda o'g'il-qizlarga miniatyura san'ati bilan bir qatorda ipak matoga naqsh tushirish, naqqoshlik sir-asorlari, qadimiy kitoblarni ta'mirlash usullari ham bepul o'rgatilmogda. Ayni paytda 57 nafar iqtidorli o'quvchi saboq o'lapti. Ularning 20 nafari eshitish va gapirishda nuqsoni bo'lgan bolalardir.

Hazrat Alisher Navoiy "Hunarni asrabon netgumdur oxir, Olib tufroqqamu ketgumdur oxir", deya lutf etganlari bejiz emas. Xalqimiz ardog'idagi san'atni o'g'il-qizlarimizga o'rgatish uchun kuch-g'ayratim, bilim va salohiyatimni ayamayman.

"O'ynaganlar bo'ladi xush Xorazmning lazgisiga"

Otabek RO'ZMETOV,
O'zbekiston davlat filarmoniyasi Xorazm viloyati bo'linmasi balet artisti, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvoni sohibi:

– O'zbek milliy raqs san'atida Xorazm yo'nalishi o'zining betakror jozibasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ilohiy mo'jiza sifatida e'tirof etiladigan, jonbaxsh "Lazgi" kuyi chalinganda keksayu yosh beixtiyor raqsqa tushib ketadi. Keyingi yillarda milliy raqs san'atimizni rivojlantirish borasida qator tashabbuslar ro'yobga chiqdi. Jumladan, "Lazgi" raqsi 2019-yilda YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritildi. 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marta Xiva shahrida



tanlovlarda qatnashib, Xorazm raqsalarini ko'p ming sonli muxlislar e'tiboriga havola etdim. Bugun 30 nafarga yaqin shogirdlarim milliy raqsalarimizni nufuzli festivallarda sahnasida zo'r mahorat bilan ijro qilayotganidan baxtiyorman. Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi arafasida Prezidentimizning Farmoni bilan "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvoni bilan taqdirlandim. Bu yuksak e'tibor menga juda katta ijodiy kuch, ilhom va rag'bat berdi. Bundan buyon ham milliy raqs san'atimizni yanada rivojlantirish, jahon sahnalarida keng targ'ib etish va kelajak avlodlarga yetkazish yo'lida bor bilim, kuch va g'ayratimni ayamayman.

"Lazgi" xalqaro raqs festivali o'tkazilmogda. O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filialida "Lazgi" ijrochiligini yanada rivojlantirish bo'limi hamda ixtisoslashtirilgan boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatining ochilishi yangi iste'dodlarni izlab topish va kashf etishga imkon beryapti. Chorak asrlik mehnat faoliyatim davomida o'ndan ortiq xorijiy davlatlarda gastrol safarlarida, turli xalqaro

Marralar sari qanot

Umarjon HAMROYEV,
"Navoiyuran" davlat korxonasining "Uran va noyob metallar geologiyasi" ilmiy-ishlab chiqarish markazi geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi bosh geologi, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan geolog" faxriy unvoni sohibi:

– Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarkibida bo'lib, uran ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan tuzilmalarining "Navoiyuran" davlat korxonasi tizimiga birlashganiga ko'p bo'lgani yo'q. Shu qisqa fursat korxonamiz hayotida ishlab chiqarish barqarorligini saqlagan holda xalqaro standartlarga muvofiq energiya samaradorligi va ekologik xavfsizlik choralarini ta'minlash, foydalanishda bo'lgan tabiiy uran konlarini uzluksiz ishlatish, uran



konlarida mavjud noyob va nodir metallarni qazib olish, qayta ishlash va uran oksidini eksport qilish borasida o'ziga xos sinovlar yili bo'ldi, desak, mubolag'a emas.

Islohotlarning har bir

jabbasida mamlakatimiz rahbarining doimiy g'amxo'rlik va e'tiborini his etib turibmiz. Ayniqsa, Prezidentimizning 2022-yil 14-iyuldagi qarori asosida mavjud zaxiralarni kengaytirish, ishlab chiqarish hajmini ikki barobar oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar korxonamizda barqaror ishlab chiqarish sur'atlarini ta'minlab, uning xalqaro reytingini ko'tarishga xizmat qilmoqda.

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan geolog" faxriy unvoni bilan taqdirlanganimni mamlakatimizning barcha ma'dan qidiruvchilariga ehtirom ramzi sifatida qabul qildim. Ushbu e'tirof biz, soha xodimlari uchun yangi-yangi marralarga qanot bo'ladi.

"Xalq so'zi".

Yanvar – iyun oylarida yurtimizda 19 ta sport obyekti ishga tushirildi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqoq. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulkiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun olmanu rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.10 Topshirildi — 02.10 **1 2 3 4 5 6**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi